

**HALOL TURIZMDA YETAKCHI ONLINE TURISTIK
AGENTLIKLARI FAOLIYATI TAHLILI VA ULARNING
YURTIMIZDAGI ISTIQBOLI**

U.M. Barotov

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: 2020 yilga kelib musulmon sayohatchilar 220 mlrd. AQSh dollari foydani tashkil etgan va dunyodagi eng tez rivojlanib borayotgan din - musulmon sayyoohlari bo'lib, ular sayohat bozoridagi eng muhim mijozlardan biri hisoblanadi. Texnologiyalarga kelsak, halol xizmatlarni yo'lga qo'ygan Turistik firmalar birinchi navbatda xaridorning ustunligini allaqachon o'rnatgan. G'arbning yirik OTA-lari kirib, ushbu istiqbolli bozorda hukmronlik qilishga intilishlari vaqt masalasiga aylandi. Hozirgi kunga kelib musulmon jahon miqiyosida musulmonlar soni 1,6 milliardni tashkil etsa, ushbu raqamlardan kichik ulushda ammo sayyoohlilik sanoati uchun yetarlicha musulmon sayyoohlар (150 mln) sayohatga chiqadi. O'zbekiston ushbu sayyoohlarning yirik markaziga aylanishi mumkin. Negaki, yurtimizda ziyorat turizmi salohiyati nihoyatda katta. Shu sababdan ham ushbu ko'rsatkich oqimini yurtimizga yo'naltirish maqsadida turizmning aynan halol standardlarni joriy qilishga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohani yanada rivojlantirishda Online Turistik Agentliklarining roli aralashuvi sohada bugungi kunda va kelajakda barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi kutiladi.

Ushbu tezisda quidagilar o'rganilib chiqiladi:

Asosiy qismda "Halol Turizm"da yetakchi mamlakatlar tajribasida Online Turistik Agentliklarning roli, ularning faoliyati bilan qisqacha tanishilib o'tiladi. Faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qismida esa buning yurtimizda qanday imkoniyatlari mavjudligi, qanday chora tadbirlar ko'riliши lozimligi va dolzarbligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Online Turistik Agentlik(OTA), Halol Turizm, Ziyorat turizmi, HalalBoking, halaltrip **Halol Turizmda yetakchi mamlakatlar**

tajribasida Online Turistik Agentliklarning roli: HalalBooking® dunyodagi yetakchi qidiruv va bronlashtirish veb-sayti bo'lib, mehmonxonalar va villalarni onlayn ravishda bron qilish imkonini beruvchi halol do'stona sayohat uchun mo'ljallangan platformadir. Ushbu tashkilot 2009 yilda uzoqni ko'ra oladigan musulmonlar tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ular sayyoqlik va ko'k chiplarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning yuqori menejment tajribasiga ega bo'lib, xalqaro miqyosda sayohat qilishda Islom me'zonlari bilan HalalBooking® qarashlarini amalga oshirish uchun birlashdilar. Shunday qilib, bunda, oilaviy plyajdagi ta'til uchun turar joy izlash, ish safari yoki dam olish kunlarini rejorashtirish, barchasini topish imkoniyati mavjud. HalalBooking orqali bron qilgan va sayohat qilgan avvalgi mehmonlarning tasdiqlangan sharhlari bilan eng zamonaviy veb-saytdan foydalanish yanada osonlashadi.

1-rasm. Halal Booking interfeysi

Dam olish maskanlari va mehmonxonalarda taqdim etilayotgan barcha ko'ngil ochar xizmatlari oilalarga mos keladi va ko'plab dam olish maskanlarida maxsus bolalar muassasalari va klublari mavjud. Ko'plab dam olish maskanlari, xususan Turkiyadagi dam olish maskanlari, faqat erkaklar va ayollar uchun mo'ljallangan, masalan, yopiq va ochiq suzish havzalari va kurortlardan iborat. Ba'zi bir mehmonxonalarda faqat ayollar uchun maxsus plyaj zonalari mavjud. Ko'pgina mehmonxonalarda oilaviy joylar (hovuzlar va plyajlar) kamtarona kiyinish joylari mavjud.

Quida saytning bosh menyusi keltirilgan



(1-
ras



mga qarang). Platforma tushunarli va xilma-xil menyularga ega va bu mijozlarga ko'plab qulayliklar yaratadi.

- Faqatga oilaga yoki ayollarga mo'ljallangam plyajlar;
- Halol taomlar va alkogolsiz ichimliklar qidirushi;
- Oilaviy tadbirlar qidirushi;
- Aniq jami oilaviy narxlar
- Narxlar, shu jumladan soliqlar va yig'imlar
- Xona barqarorligi garovi (xavfsizlik)

Bundan tashqari, ko'plab platformalar va saytlar ham faoliyatini ko'rsatmoqda. Jumladan, halaltrip.com sayti ham musulmon olami sayohatchilarga va an'anaviy sayyoohlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Hozirda halaltrip.comning 7ta davlatda o'z vakilliklari mavjud.

Keyingi 12 yil ichida CrescentRating Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, G'arbiy Evropa va Osiyodagi asosiy bozorlarga aylandi. Hozir u Halal Travel kompaniyasining dunyodagi etakchi vakolatxonasi bo'lib, hukumat idoralaridan tortib mehmonxonalarga qadar turistik sanoatning har bir sohasiga tushuncha, tadqiqot, maslahat, o'qitish, reyting va yo'naltirilgan marketing xizmatlarini taqdim etadi.

Yurtimizda buning istiqboli qay darajada?

Yuqorida bir nechta platforma va saytlar orqali o'z faoliyatini olib borayotgan Online Turistik agentliklar faoliyati bilan tanishib chiqdik. Ularning aksariyati yevropa mintaqasida faoliyat yuritadi va yetakchilik qiladi.

Yurtimizda ham ziyorat turizmi uchun keng imkoniyatlar mavjud. Biroq ularda tashkil etiladigan turlar an'anaviy shakldaligi sababli sayyoohlarni oqimi qoniqarli darajada. Yurtimiz Halol Turizmda o'z Online Turistik Agentligini tashkil etsa va yagona milliy brend ostida faoliyat olib borishni boshlasa, dunyoning turli burchaklaridan musulmon sayohatchilarni jalb qila olgan bo'lardi.

Adabiyotlar:

1. Duman, T.2011. World Islamic Tourism Forum. Value of Islamic Tourism offering.